“ZAAMIN ULTRA 2025”
xalqaro ultra marafon yugurish musobaqasini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi
NIZOM

MAZMUNI:

1. UMUMIY QOIDALAR ……
2. TADBIRNI BOSHQARISH ……...
3. MUSOBAQA ISHTIROKCHILARI …….
4. TADBIR O‘TKAZILADIGAN SANA, JOY VA VAQT ……
5. MASOFALAR, MASOFANI BOSIB O‘TISH UCHUN VAQT CHEGARALARI …
6. TADBIRNI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH XARAJATLARI ……
7. ISHTIROKCHILARNI RO‘YXATDAN O‘TKAZISH ……
8. 50 KM MASOFAGA SARALASH ……..
9. START TO‘PLAMLARINI TOPSHIRISH ……...
10. TADBIR DASTURI……..
11. MASOFALAR VA JIHOZLAR ……
12. MUSOBAQAGA RUXSAT……..
13. SAQLASH KAMERASI
14. MUSOBAQA NATIJALARINI HISOBLASH VA G‘OLIBLARNI ANIQLASH
15. G‘OLIBLARNI TAQDIRLASH, YOSH TOIFALARI, MAXSUS KATEGORIYALAR
16. MUSOBAQA MARSHRUTIDA HARAKATLANISH QOIDALARI ……
17. DISKVALIFIKATSIYA ……
18. MUSOBAQANING HAKAMLIK HAY’ATI ……
19. FORS-MAJOR HOLATLAR …….
20. PROTESTLAR VA APELLYATSIYALAR ……...
21. YAKUNIY QOIDALAR ……..

1. UMUMIY QOIDALAR

Yugurish tadbiri — Xalqaro ultramarafon “ZAAMIN ULTRA 2025” (keyingi o‘rinlarda — Musobaqa, Tadbir) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-martdagi 55-sonli (VM 21-25/55) bayonomasi asosida quyidagi maqsadlarda o‘tkaziladi:

− madaniyat va san’at obyektlarida inklyuzivlik muammolariga jamoatchilik e’tiborini jalb etish;

− sog‘lom turmush tarzini ommalashtirish;

− sport turizmini rivojlantirish;

− O‘zbekiston Respublikasi aholisi, shu jumladan yosh avlodni muntazam jismoniy tarbiya va faol sport turlari bilan shug‘ullanishga jalb etish.

2. TADBIRNI BOSHQARISH

2.1. Tadbir tashkilotchisi:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda – Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi).

2.2. Tadbir quyidagi tashkilotlar ko‘magida o‘tkaziladi:

− O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligi;

− Jizzax viloyati hokimligi.

2.3. Tashkilotchi va Tadbir Tashkiliy qo‘mitasi (keyingi o‘rinlarda – «Tashkiliy qo‘mita») o‘rtasidagi huquq va majburiyatlar taqsimoti O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining bayonnomasi bilan tasdiqlanadi.

2.4. Tadbirni bevosita o‘tkazish mas’uliyati Tashkiliy qo‘mita va Musobaqa hakamlar hay’atiga yuklatiladi.

3. MUSOBAQA ISHTIROKCHILARI

3.1. Musobaqa ishtirokchisiga aylanish uchun quyidagilar talab etiladi:

– events.samarkandmarathon.uz saytida ro‘yxatdan o‘tish va start to‘lovini amalga oshirish;

– amaldagi shaxsiy ma’lumotlarni taqdim etish;

– ushbu Nizomda ko‘rsatilgan Tadbir qoidalariga rioya etish.

Musobaqada quyidagi yosh toifasidagi shaxslar ishtirok etishiga ruxsat beriladi:

− 50K - 50 km - 18 yosh va undan katta ishtirokchilar uchun;

− 21K - 21 km - 18 yosh va undan katta ishtirokchilar uchun;

− 10K - 10 km - 16 yosh va undan katta ishtirokchilar uchun;

− 5K - 5 km - 14 yosh va undan katta ishtirokchilar uchun;

− 2K - 2 km - 12 yosh va undan katta ishtirokchilar uchun;

− 1000 metrlik bolalar yugurishi - 9 yoshdan 11 yoshgacha bo‘lgan ishtirokchilar uchun;

− 600 metrlik bolalar yugurishi - 7 yoshdan 8 yoshgacha bo‘lgan ishtirokchilar uchun;

− 300 metrlik bolalar yugurishi - 5 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan ishtirokchilar uchun;

− 60 metrlik bolalar yugurishi - 3 yoshdan 4 yoshgacha bo‘lgan ishtirokchilar uchun.

3.3. Musobaqaga ro‘yxatdan o‘tayotganda ishtirokchining yoshi Musobaqa o‘tkaziladigan sanaga nisbatan to‘liq yillar asosida hisoblanadi.

Ishtirokchining yoshi e’lon qilingan masofaga mos kelishi shart. Agar ishtirokchi belgilangan yosh chegarasidan kichik yoki katta bo‘lsa, bunday ishtirokchi musobaqaga qo‘yilmaydi va boshlang‘ich badal summasi qaytarilmaydi.

3.4. Musobaqada quyidagilar ishtirok etishi mumkin:

−professional sportchilar va havaskorlar;

−turli yosh toifasidagi ishtirokchilar (masofalarga qarab aniqlanadi);

−nogironligi bo‘lgan ishtirokchilar.

3.5. Musobaqada bir vaqtning o‘zida bir nechta masofalarda ishtirok etishga ruxsat etiladi (turli kunlarda – 14-15-iyun2025-yil).

3.6. Har bir ishtirokchi Musobaqaga ro‘yxatdan o‘tish uchun o‘z shaxsiy hisobiga ega bo‘lishi shart. O‘z hisobingizdan qarindoshlar, do‘stlar, farzandlar va boshqalarni ro‘yxatdan o‘tkazish mumkin emas.

Ishtirokchining shaxsiy ma’lumotlariga o‘zgartirish kiritish narxi 30 000 (o‘ttiz ming) so‘mni tashkil etadi. O‘zgartirishlar kiritish uchun t.me/samarkandmarathon_support telegram manziliga yoki marathon@acdf.uz. elektron pochtasiga murojaat qilishingiz lozim.

4. TADBIRNING SANASI, VAQTI VA O‘TKAZILISH JOYI

4.1. Tadbirning o‘tkazilish sanasi va vaqti:
4.1.1. 2025-yil 14-iyun soat 12:00 dan 21:00 gacha;
4.1.2. 2025-yil 15-iyun soat 05:30 dan 15:00 gacha.
4.2. Tadbirning o‘tkazilish joyi: O‘zbekiston Respublikasi, Jizzax viloyati, Zomin milliy tabiat bog‘i.
4.3. Masofalarning start vaqti:
4.3.1. 2025-yil 14-iyun:
16:00 - bolalar startlari: 60 m, 300 m, 600 m, 1000 m;
17:45 - 2K.
4.3.2. 2025-yil 15-iyun:
−06:00 - 50K;
−09:00 - 21K;
−09:10 - 10K;
−09:20 - 5K.
4.4. Start to‘plamlari quyidagi vaqt va joylarda beriladi:
4.4.1. 2025-yil 11-12-iyun kunlari soat 12:00 dan 20:00 gacha Toshkent shahri, T. Shevchenko ko‘chasi, 1-uyda joylashgan Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasida;
4.4.2. 2025-yil 14-iyun kuni soat 12:00 dan 18:30 gacha Tadbirning o‘tkazilish joyida.

5. MASOFALAR VA ULARNI BOSIB O‘TISH UCHUN VAQT CHEGARALARI

5.1. Tadbir dasturiga quyidagi masofalar kiritilgan:
− 50 K – 50 km;
− 21 K – 21 km;
− 10 K – 10 km;
− 5 K – 5 km;
− 2 K – 2 km;
− Bolalar yugurishi – 1000 m;
− Bolalar yugurishi – 600 m;
− Bolalar yugurishi – 300 m;
− Bolalar yugurishi – 60 m.
5.2. Masofalarni bosib o‘tish uchun vaqt cheklovlari:
− 50K masofani bosib o‘tish uchun vaqt limiti – 8 soat 00 daqiqa;
− 20K masofani bosib o‘tish uchun vaqt limiti – 5 soat 00 daqiqa;
− 10K masofani bosib o‘tish uchun vaqt limiti – 3 soat 00 daqiqa;
− 5K masofani bosib o‘tish uchun vaqt limiti – 1 soat 30 daqiqa;
− 2K masofani bosib o‘tish uchun vaqt limiti – 0 soat 30 daqiqa.
5.3. Bolalar yugurishlari uchun vaqt cheklovlari belgilanmagan.

6. TADBIRNI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH BO‘YICHA XARAJATLAR

6.1. Tadbirni tashkil etish va o‘tkazish xarajatlari quyidagi manbalar hisobidan qoplanadi:
−Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan;
−jismoniy va yuridik shaxslarning xayriya badallari hisobidan;
−qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan.

6.2. Tadbirda ishtirok etish bilan bog‘liq safar, joylashish va oziq-ovqat xarajatlari ishtirokchilarni yuboruvchi tashkilotlar yoki tadbir ishtirokchilarining o‘zi tomonidan qoplanadi.

7. ISHTIROKCHILARNI RO‘YXATDAN O‘TKAZISH

7.1. Ishtirokchilarni ro‘yxatdan o‘tkazish events.samarkandmarathon.uz saytida amalga oshiriladi va 2025-yil 06-iyun soat 23:59 da yoki qatnashchilar soni belgilangan chegaraga yetganidan so‘ng yakunlanadi:
– 50 km – 150 ishtirokchi;
– 21 km – 350 ishtirokchi;
– 10 km – 1100 ishtirokchi;
– 5 km yugurish – 1300 ishtirokchi;
– 2 km yugurish – 580 ishtirokchi;
– bolalar yugurishi 1000 m – 80 ishtirokchi;
– bolalar yugurishi 600 m – 60 ishtirokchi;
– bolalar yugurishi 300 m – 40 ishtirokchi;
– bolalar yugurishi 60 m – 20 ishtirokchi.

7.2. Korporativ ishtirokchilarni ro‘yxatdan o‘tkazish t.me/samarkandmarathon_corporate Telegram manzili yoki marathon@acdf.uz elektron pochtasi orqali yuborilgan so‘rov orqali amalga oshiriladi.

Ro‘yxatdan o‘tish shartlari:
– tashkilotdan qatnashadigan ishtirokchilar soni 10 (o‘n) kishidan ko‘p bo‘lishi kerak;
– agar tashkilot nomidan qatnashayotganlar soni 10 (o‘n) kishidan kam bo‘lsa, ular mustaqil ravishda ro‘yxatdan o‘tadilar.

Korporativ qatnashuv tashkilot tomonidan tuzilgan shartnoma asosida tashkilotchilar hisob raqamiga pul o‘tkazish orqali amalga oshiriladi. Ro‘yxatdan o‘tish so‘rov va maxsus shaklni to‘ldirish asosida amalga oshiriladi.

7.3. Quyidagi shartlarga javob bergan shaxs ro‘yxatdan o‘tgan deb hisoblanadi:
− aniq masofa bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan;
− start to‘lovini amalga oshirgan;
− ishtirokchi raqamini olgan.

7.4. Ro‘yxatdan o‘tish va start to‘lovini amalga oshirish orqali ishtirokchi ushbu Nizomda belgilangan barcha shartlarga roziligini tasdiqlaydi.

Ishtirokchi, shuningdek, musobaqa qoidalari bilan tanishganini, o‘z majburiyatlari va javobgarligini anglaganini va Tashkiliy qo‘mita tomonidan belgilangan barcha talablarni bajara olishini tasdiqlaydi.

7.5. Start badallari narxlari:
7.5.1. 2025-yil 31-oktabr soat 23:59 gacha:
– 50 km – 300 000 (uch yuz ming) so‘m;
– 21 km – 300 000 (uch yuz ming) so‘m;
– 10 km – 300 000 (uch yuz ming) so‘m;
– 5 km – 250 000 (ikki yuz ellik ming) so‘m;
– 2 km – 250 000 (ikki yuz ellik ming) so‘m;
− bolalarning 1000 metrga yugurishi - 200 000 (ikki yuz ming) so‘m;
− bolalarning 600 metrga yugurishi - 200 000 (ikki yuz ming) so‘m;
− bolalarning 300 metrga yugurishi - 200 000 (ikki yuz ming) so‘m;
− bolalarning 60 metrga yugurishi - 200 000 (ikki yuz ming) so‘m.

7.6. Masofani o‘zgartirish faqat 2025-yil 5-iyun soat 23:59 gacha mumkin.

Masofani o‘zgartirish narxi 50 000 (ellik ming) so‘m.

Masofa kichikroqdan kattaroqqa o‘zgartirilganda, ishtirokchi slotlar qiymatidagi farqni qo‘shimcha to‘lashi shart.

Masofa kattaroqdan kichikroqqa o‘zgartirilganda, slotlar qiymatidagi farq qaytarilmaydi.

O‘zgartirish faqat yosh talablariga rioya qilingan holda va tanlangan masofada bo‘sh slotlar mavjud bo‘lgandagina amalga oshirilishi mumkin.

Masofani 50K ga o‘zgartirishda ushbu Nizomning 8-bo‘limiga rioya qilish majburiy.

Masofa almashtirish faqat yosh chegaralari va tanlangan masofada bo‘sh joylar mavjud bo‘lsa amalga oshiriladi.

Oldingi start raqami bekor qilinadi va yangi masofaga mos yangi raqam beriladi.

Masofani almashtirish uchun t.me/samarkandmarathon_support telegram manziliga yoki marathon@acdf.uz. elektron pochtasiga murojaat qilish kerak.

7.7. Avval slot xarid qilgan ayollar uchun, agar ular Musobaqa o‘tkazilishidan oldin homiladorlik haqida bilib olishsa, slot uchun to‘langan mablag‘ qaytariladi.

Qaytarish narxi – 0 (nol) so‘m.

Pulni qaytarish uchun t.me/samarkandmarathon_support telegram manziliga yoki marathon@acdf.uz elektron pochtasiga yozish va homiladorligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etish lozim.

Boshqa hollarda to‘lov qaytarilmaydi.

7.8. Nogironligi bo‘lgan ishtirokchilar Musobaqada ishtirok etish uchun bepul slot olishlari mumkin.

Buning uchun 2025-yil 05-iyun 23:59 gacha t.me/samarkandmarathon_support telegram manziliga yoki marathon@acdf.uz elektron pochtasiga so‘rov yuborilishi lozim.

So‘rov quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

−Ishtirokchining F.I.O;

−Nogironlikni tasdiqlovchi hujjatlar;

−Tanlangan masofa.

Nogironligi bo‘lgan ishtirokchilar uchun ajratilgan bepul slotlar soni cheklangan. Agarbarcha bepul slotlar tugagan bo‘lsa, Tashkilot qo‘mitasi ishtirokchiga rad javobi berish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

8. MUSOBAQADA ISHTIROK ETISH UCHUN TALABLAR

8.1. 50K masofasida ishtirok etish uchun ishtirokchi quyidagi mezonlardan biriga mos bo'lishi lozim:

“ZAAMIN ULTRA 2024” musobaqasida 50K masofasini tamomlagan bo‘lishi;

“ZAAMIN ULTRA 2024” musobaqasida 21K masofasini 2 soat 40 daqiqadan oshmagan natija bilan tamomlagan bo‘lishi;

“SKY CAMP BO‘STONLIQ 2024” yoki “SKY CAMP BO‘STONLIQ 2025” musobaqalarida 20K masofasini tamomlagan bo‘lishi;

Rasmiy marafonda (42 km 195 m) 4 soat 30 daqiqadan oshmagan natija bilan ishtirok etgan bo‘lishi (musobaqa o‘tkazilgan sanadan boshlab 1 yil ichida o‘tgan natijalar hisobga olinadi).

8.2. Malakani tasdiqlash.

Ro‘yxatdan o‘tganidan keyin 3 ish kuni ichida ishtirokchi telegram orqali (t.me/samarkandmarathon_support) yoki elektron pochta orqali (marathon@acdf.uz) o‘zining ismi va familiyasi ko‘rsatilgan rasmiy natija protokoliga havolani yuborishi shart.

Skrinshotlar, medal va start raqami finishni tasdiqlovchi hujjat hisoblanmaydi.

Agar belgilangan muddatda havola yuborilmasa, ro‘yxat avtomatik tarzda 21K masofaga o‘zgartiriladi.

8.3. Qo‘shimcha mashg‘ulot faolligini tekshirish.

Tashkilotchi ishtirokchining 50K masofaga tayyorligini tasdiqlovchi yangilangan mashg‘ulot ma'lumotlarini so‘rash huquqini o‘zida saqlab qoladi.

9. START TO‘PLAMLARINI BERISH

9.1. Ishtirokchi start to‘plamini quyidagi manzillarda olishi mumkin:

9.1.1. 2025-yil 11–12-iyun kunlari soat 12:00 dan 20:00 gacha, Toshkent shahri, T. Shevchenko ko‘chasi, 1-uy (Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi binosida);

9.1.2. 2025-yil 14-iyun kuni soat 12:00 dan 18:30 gacha, Tadbir o‘tkaziladigan joyda: Jizzax viloyati, “Zomin” milliy tabiat bog‘i hududida.

Diqqat! Start to‘plamlari faqat ko‘rsatilgan kunlarda topshiriladi. Boshqa kunlarda berilmaydi.

9.2. Start to‘plamiga quyidagilar kiradi:

– natijani qayd etuvchi chip o‘rnatilgan start raqami;

– futbolka;

– ryukzak.

9.3. Start to‘plami faqat quyidagi hujjatlar taqdim etilganda beriladi:

9.3.1. Shaxsiy ravishda topshirib olishda:

– shaxsni tasdiqlovchi hujjat (asl nusxasi yoki elektron ko‘rinishi);

–ishtirokchining vakolatli shaxs orqali start to‘plamini olish bo‘yicha javobgarlikni tashkilotchidan olib tashlash haqidagi roziligi (blankasi events.samarkandmarathon.uz saytida joylashtirilgan) — ushbu tilxatning asl nusxasi.

9.3.2. Vakolatli shaxs orqali topshirib olishda:

– vakolatli shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjati (asl nusxasi yoki elektron ko‘rinishi);

– ishtirokchining shaxsini va yoshini tasdiqlovchi hujjat nusxasi;

–ishtirokchining vakolatli shaxs orqali start to‘plamini olish bo‘yicha roziligi va tashkilotchidan javobgarlikni olib tashlash haqidagi tilxat (blankasi events.samarkandmarathon.uz saytida joylashtirilgan) — ushbu tilxatning asl nusxasi.

9.4. Tadbirda voyaga yetmagan ishtirokchining qatnashishiga va start to‘plamini olishiga ruxsat berish uchun voyaga yetmagan ishtirokchining qonuniy vakili quyidagilarni taqdim etishi shart: qonuniy vakillik huquqini tasdiqlovchi hujjat va ota-onalar tomonidan to‘ldirilgan rozilik arizasining asl nusxasi. Ariza shakli events.samarkandmarathon.uz saytida joylashtirilgan.

Voyaga yetmagan ishtirokchining qonuniy vakili huquqini tasdiqlovchi hujjat sifatida quyidagilar qabul qilinadi:

− bolaning tug‘ilganligi qayd etilganligi to‘g‘risida FHDYO organining muhrli qaydi mavjud bo‘lgan ota-onaning shaxsini tasdiqlovchi hujjat (asl nusxasi yoki elektron shakli);

− ota-onaning shaxsini tasdiqlovchi hujjat (asl nusxasi yoki elektron shakli) hamda bolaning tug‘ilganlik haqidagi guvohnomasi, agar ota-onaning hujjatida FHDYO qaydi mavjud bo‘lmasa;

− homiy yoki vasiylik huquqini tasdiqlovchi tegishli hujjat taqdim etilganda homiyning shaxsini tasdiqlovchi hujjati;

− voyaga yetmagan ishtirokchining qonuniy vakillik huquqini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar.

9.5. Korporativ ishtirokchilar start to‘plamlarini mazkur Nizomning 9.1-bandida ko‘rsatilgan sanalarda olishlari mumkin.

Start to‘plamini olish uchun quyidagilarni taqdim etish talab etiladi:

− ishonchli shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjati (asl nusxasi yoki elektron shakli);

− ishtirokchi (ishonch bildirgan shaxs)ning shaxsiy ma’lumotlarini va yoshini tasdiqlovchi hujjat nusxasi;

− ishtirokchi tomonidan to‘ldirilgan va imzolangan, ishonchli shaxs nomiga rasmiylashtirilgan, hayot va sog‘liqqa etkazilishi mumkin bo‘lgan zarar uchun Tashkilotchi javobgar emasligi ko‘rsatilgan tilxat (shakli events.samarkandmarathon.uz saytida mavjud).

9.6. Bitta ishonchli shaxs Musobaqaning 10 (o‘n) tadan ortiq bo‘lmagan start to‘plamlarini olishi mumkin.

10. TADBIR DASTURI

Tadbir dasturi events.samarkandmarathon.uz. saytida joylashtirilgan.

11. MASOFALAR VA JIHOZLAR

11.1.1. KIDS RUN 60:
11.1.1.1. Masofa starti – 2025-yil 14-iyun (shanba). Start vaqti keyinroq e'lon qilinadi.
11.1.1.2. Masofa uzunligi – 60 m.
11.1.1.3. Yosh chegarasi – 3 yoshdan 4 yoshgacha.
11.1.1.4. Masofani bosib o'tish uchun vaqt cheklovi belgilanmagan.
11.1.2. KIDS RUN 300:
11.1.2.1. Masofa starti – 2025-yil 14-iyun (shanba). Start vaqti keyinroq e'lon qilinadi.
11.1.2.2. Masofa uzunligi – 300 m.
11.1.2.3. Yosh chegarasi – 5 yoshdan 6 yoshgacha.
11.1.2.4. Masofani bosib o'tish uchun vaqt cheklovi belgilanmagan.
11.1.3. KIDS RUN 600:
11.1.3.1. Masofa starti – 2025-yil 14-iyun (shanba). Start vaqti keyinroq e'lon qilinadi.
11.1.3.2. Masofa uzunligi – 600 m.
11.1.3.3. Yosh chegarasi – 7 yoshdan 8 yoshgacha.
11.1.3.4. Masofani bosib o'tish uchun vaqt cheklovi belgilanmagan.
11.1.4. KIDS RUN 1000:
11.1.4.1. Masofa starti – 2025-yil 14-iyun (shanba). Start vaqti keyinroq e'lon qilinadi.
11.1.4.2. Masofa uzunligi – 1000 m.
11.1.4.3. Yosh chegarasi – 9 yoshdan 11 yoshgacha.
11.1.4.4. Masofani bosib o'tish uchun vaqt cheklovi belgilanmagan.
11.2. 2K masofa:
11.2.1. Masofa starti – 2025-yil 14-iyun (shanba) soat 17:45 da.
11.2.2. Masofa uzunligi – 2 km.
11.2.3. Yosh chegarasi – 12 yoshdan yuqori.
11.2.4. Masofani bosib o'tish uchun vaqt cheklovi: 0 soat 30 daqiqa.
11.2.5. Oziqlanish punkti mavjud emas.
11.3. 5K masofa:
11.3.1. Masofa starti – 2025-yil 15-iyun (yakshanba) soat 08:20 da.
11.3.2. Masofa uzunligi – 5 km.
11.3.3. Yosh chegarasi – 14 yoshdan yuqori.
11.3.4. Masofani bosib o'tish uchun vaqt cheklovi: 1 soat 30 daqiqa.
11.3.5. Masofa bo‘yicha 4-km da 1 ta oziqlanish punkti mavjud.
11.3.6. Tavsiya etilgan jihozlar ro‘yxati:
bosh kiyim (kepka, buff, bandana va h.k.);
suv uchun idish (butilka, qayta ishlatiladigan stakan va h.k.);
quyoshdan himoya qiluvchi kiyim (uzun yengli futbolka yoki qisqa yengli futbolka + yenglar).

11.4. 10K masofa:
11.4.1. Masofa starti – 2025-yil 15-iyun (yakshanba) soat 08:10 da.
11.4.2. Masofa uzunligi – 10 km.
11.4.3. Yosh chegarasi – 16 yoshdan yuqori.
11.4.4. Masofani bosib o'tish uchun vaqt cheklovi: 3 soat 00 daqiqa.
11.4.5. Masofa bo‘yicha 3 ta oziqlanish punkti mavjud – 4 km, 6 km, 9 km da.
11.4.6. Tavsiya etilgan jihozlar ro‘yxati:
−zaryadlangan telefon (tez yordam chaqirish raqami yozilgan bo‘lishi shart) +998 99 363 22 36 (faqat yugurish vaqtida favqulodda evakuatsiya bo‘yicha qo‘ng‘iroq qilish mumkin);
−bosh kiyim (kepka, buff, bandana va h.k.);
−suv uchun idish (butilka, qayta ishlatiladigan stakan va h.k.);
−quyoshdan himoyalovchi krem;
−quyoshdan himoyalovchi kiyim (uzun yengli futbolka yoki qisqa yengli futbolka + yenglar).

11.5. 21K masofa:

11.5.1. Masofa starti – 2025-yil 15-iyun (yakshanba) soat 08:00 da.

11.5.2. Masofa uzunligi – 21 km.

11.5.3. Yosh chegarasi – 18 yoshdan yuqori.

11.5.4. Masofani bosib o'tish uchun vaqt cheklovi: 5 soat 00 daqiqa.

11.5.5. Masofa bo‘yicha 6 ta oziqlanish punkti mavjud – 4 km, 7 km, 10 km, 14 km, 17 km, 20 km da.

11.5.6. Tavsiya etilgan jihozlar ro‘yxati:

zaryadlangan telefon (tez yordam chaqirish raqami yozilgan bo‘lishi shart) +998 99 363 22 36 (faqat yugurish vaqtida favqulodda evakuatsiya bo‘yicha qo‘ng‘iroq qilish mumkin);

bosh kiyim (kepka, buff, bandana va h.k.);

suv uchun idish (gidrator, butilka, qayta ishlatiladigan stakan va h.k.);

quyoshdan himoyalovchi krem;

quyoshdan himoyalovchi kiyim (uzun yengli futbolka yoki qisqa yengli futbolka + yenglar).

11.6. 50K masofa:

11.6.1. Masofa starti – 2025-yil 15-iyun (yakshanba) soat 06:00 da.

11.6.2. Masofa uzunligi – 50 km.

11.6.3. Yosh chegarasi – 18 yoshdan yuqori (malaka talab etiladi).

11.6.4. Masofani bosib o'tish uchun vaqt cheklovi: 8 soat 00 daqiqa.

11.6.5. Nazorat vaqti (NV): 4 soat – 2025-yil 15-iyun soat 10:00 gacha ishtirokchi 25 km da joylashgan nazorat punktidan (NP) o‘tib bo‘lishi lozim.

NVdan o‘ta olmagan ishtirokchilar diskvalifikatsiya qilinadi va finish medali berilmaydi.

11.6.6. Masofa bo‘yicha 16 ta oziqlanish punkti mavjud: 4 km, 7 km, 10 km, 13 km, 16 km, 19 km, 22 km, 25 km, 28 km, 31 km, 34 km, 37 km, 40 km, 43 km, 46 km, 49 km da.

11.6.7. Majburiy jihozlar ro‘yxati:

−zaryadlangan telefon (tez yordam chaqirish raqami yozilgan bo‘lishi shart) +998 99 363 22 36 (faqat yugurish vaqtida favqulodda evakuatsiya bo‘yicha qo‘ng‘iroq qilish mumkin);

−bosh kiyim (kepka, buff, bandana va h.k.);

−suv uchun idish (gidrator, butilka, qayta ishlatiladigan stakan va h.k.);

−qutqaruv adyoli;

−hushtak.

Ishtirokchi barcha majburiy jihozlarni butun masofa davomida o‘zi bilan olib yurishi shart. Majburiy jihozlardan bir yoki bir nechtasini yo‘lda qoldirish (atayin yoki tasodifan yo‘qotish) ishtirokchining diskvalifikatsiyasiga olib keladi.

Majburiy jihozlar start koridoriga kirishda hakamlar tomonidan tekshiriladi, shuningdek masofa bo‘yicha istalgan nuqtada va finishda qo‘shimcha tekshiruv bo‘lishi mumkin.

11.6.8. Tavsiya etilgan jihozlar ro‘yxati:

−quyoshdan himoyalovchi krem;

−quyoshdan himoyalovchi kiyim (uzun yengli futbolka yoki qisqa yengli futbolka + yenglar).

11.7. Agar Musobaqa davomida ob-havo sharoiti o‘zgaradigan bo‘lsa, Tashkilotchi masofalar, nazorat vaqti (NV) va boshqa shartlarga o‘zgartirishlar kiritish huquqiga ega. Bu haqda ishtirokchilar brifingda va ijtimoiy tarmoqlarda xabardor qilinadi.

12. MUSOBAQAGA RUXSAT

12.1. Ishtirokchining start raqami ko‘krakda yoki bel kamarida joylashtirilgan bo‘lishi va yaxshi ko‘rinadigan bo‘lishi kerak.

12.2. Start raqamisiz ishtirokchilar musobaqaga qo‘yilmaydi.

13. SAQLASH KAMERASI

13.1. Saqlash kamerasiga faqat start to‘plamida berilgan ryukzaklardagi buyumlarni topshirish tavsiya etiladi.

13.2. Saqlash kamerasiga chamadonlar, yirik o‘lchamdagi sumkalar qabul qilinmaydi.

13.3. Ishtirokchilarga saqlash kamerasiga qimmatbaho buyumlar, naqd pul va taqinchoqlarni topshirmaslik qat’iyan tavsiya etiladi.

13.4. Tashkilotchi ryukzak ichidagi buyumlarning saqlanishi uchun javobgar emas.

13.5. Ryukzakdagi buyumlarning yo‘qolishi bo‘yicha da’volar Tashkiliy qo‘mita tomonidan ko‘rib chiqilmaydi.

14. NATIJALAR HISOBI VA G‘OLIBLARNI ANIQLASH

Musobaqadagi yugurish masofalarida g‘oliblar va sovrindorlar World Athletics qoidalariga muvofiq aniqlanadi.

Ishtirokchilarning natijalari Musobaqaning elektron xronometraj tizimi orqali qayd etiladi va Musobaqa hakamlar hay’ati tomonidan tasdiqlanadi.

14.1. 50K, 21K, 10K, 5K masofalaridagi g‘olib va sovrindorlarni aniqlash GUN TIME bo‘yicha amalga oshiriladi

14.2. Musobaqaning rasmiy natijalari events.samarkandmarathon.uz saytida e’lon qilinadi.

14.3. Ishtirokchining natijasi faqatgina start raqami to‘g‘ri tarzda ko‘krakda yoki bel kamarida mahkamlangan bo‘lsa, qayd etiladi.

14.4. KIDS RUN 1000, 600, 300, 60 ishtirokchilarning natijalari GUN TIME vaxtiga asosan amalga oshiriladi.

14.5. Quyidagi holatlarda Tashkiliy qo‘mita ishtirokchining shaxsiy natijasini qayd etilishini kafolatlamaydi:

− chipli raqam noto‘g‘ri mahkamlangan bo‘lsa;

− chipli raqam usti kiyim bilan yopilgan yoki boshqa usulda yashirilgan bo‘lsa;

− chip magnitlanish xususiyatini yo‘qotgan bo‘lsa;

− chip ishtirokchi tomonidan shikastlangan bo‘lsa.

14.6. Natijani tushunish uchun terminologiya:

DNS – Did not start (ishtirokchi startga chiqmagan);

DNF – Did not finish (ishtirokchi finishga yetib bormagan);

DSQ – Disqualified (ishtirokchi diskvalifikatsiya qilingan);

CR – Champion Record (musobaqa rekordi);

GUN TIME – umumiy vaqt – start signali bergan vaqtdan ishtirokchining finish chizig‘idan o‘tgan vaqti orasidagi vaqt;

CHIP TIME – shaxsiy vaqt – ishtirokchining start gilamchasidan bosib o‘tgan vaqtidan finish gilamchasidan o‘tgan vaqti orasidagi vaqt.

15. MUSOBAQA G‘OLIBLARINI TAQDIRLASH, YOSH TOIFALARI, MAXSUS TOIFALAR

15.1. 50K:
15.1.1. Taqdirlash quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiriladi:
− Mutlaq natijalar bo‘yicha: erkaklar va ayollar orasida 1–3-o‘rin;
− Yosh toifalari bo‘yicha: erkaklar va ayollar orasida 1-o‘rin.
15.1.2. Yosh toifalari:
− 35–39 yosh;
− 40–44 yosh;
− 45–49 yosh;
− 50–54 yosh;
− 55 yosh va undan katta.
15.2. 21K:
15.2.1. Taqdirlash quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiriladi:
− Mutlaq natijalar bo‘yicha: erkaklar va ayollar orasida 1–3-o‘rin;
− Yosh toifalari bo‘yicha: erkaklar va ayollar orasida 1-o‘rin.
15.2.2. Yosh toifalari:
− 35–39 yosh;
− 40–44 yosh;
− 45–49 yosh;
− 50–54 yosh;
− 55 yosh va undan katta.
15.3. 10K:
15.3.1. Taqdirlash quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiriladi:
− Mutlaq natijalar bo‘yicha: erkaklar va ayollar orasida 1–3-o‘rin;
− Yosh toifalari bo‘yicha: erkaklar va ayollar orasida 1-o‘rin.
15.3.2. Yosh toifalari:
− 16–17 yosh;
− 35–39 yosh;
− 40–44 yosh;
− 45–49 yosh;
− 50–54 yosh;
− 55 yosh va undan katta.
15.4. 5K:
15.4.1. Taqdirlash quyidagicha amalga oshiriladi:
15.4.2. Mutlaq natijalar bo‘yicha: erkaklar va ayollar orasida 1–3-o‘rin;
− Yosh toifalari bo‘yicha: erkaklar va ayollar orasida 1-o‘rin.
Yosh toifalari:
− 14–15 yosh;
− 16–17 yosh;
− 35–39 yosh;
− 40–44 yosh;
− 45–49 yosh;
− 50–54 yosh;
− 55 yosh va undan katta.

15.5. 1000 m, 600 m, 300 m, 60 m bolalar yugurish masofalari hamda 2K masofasi bo‘yicha g‘oliblarni taqdirlash nazarda tutilmagan.

15.6. 50K, 21K, 10K va 5K masofalari bo‘yicha mutlaq natijada g‘olib va sovrindorlar diplom va kubok bilan taqdirlanadi.

50K va 21K masofalarida mutlaq g‘oliblar yosh toifalari bo‘yicha alohida taqdirlanmaydi.

Yosh toifalari bo‘yicha g‘oliblar diplom bilan taqdirlanadi.

15.7. Belgilangan vaqt chegarasida marraga yetib kelgan barcha ishtirokchilarga esdalik medal beriladi.

15.8. Agar mutlaq yoki yosh toifasi bo‘yicha g‘olib taqdirlash marosimi vaqtida diplom yoki kubokni olmagan bo‘lsa, uni tadbir o‘tkazilgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida quyidagi manzilda olib ketishi mumkin: Toshkent shahri, T. Shevchenko ko‘chasi, 1-uy (O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi). Diplom yoki kubokni olish vaqti va joyi rasmiy axborot manbalarida e’lon qilinadi.

16. MUSOBAQA YO‘LI BO‘YICHA XULQ-ATVOR QOIDALARI

Musobaqalar World Athletics (keyingi o‘rinlarda – WA) qoidalariga muvofiq o‘tkaziladi.

16.1. Tavsiya etamiz:

− ikki yoki undan ortiq ishtirokchi bilan bir qatorda yugurmaslik;

− qadam tashlab ketayotgan paytda yo‘lning o‘ng tomonida harakatlanishni davom ettirish.

16.2. Quyidagilar taqiqlanadi:

− har qanday mexanik harakatlanish vositalaridan foydalanish (samokat, velosiped, rolik va h.k.);

− quloqchin (naushnik) bilan qatnashish. Ishtirokchi hakamlar, Musobaqani tashkil etishda ishtirok etayotgan shaxslar va boshqa ishtirokchilarning ogohlantirishlarini eshitishi kerak;

− hayvonlar bilan qatnashish;

− spirtli ichimlik yoki narkotik modda ta’sirida qatnashish;

− boshqa ishtirokchilar uchun xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan istalgan buyumlar bilan qatnashish;

− trassada to‘xtab qolish. Agar ishtirokchi o‘zini yomon his qilsa, imkon qadar to‘xtab, trassa chetiga chiqib, boshqa ishtirokchilarga xalaqit bermasligi lozim;

− boshqa ishtirokchilar harakatiga yoki Musobaqani tashkil etishga har qanday boshqa yo‘l bilan to‘sqinlik qilish.

− Rasmiy shaxslar va boshqa shaxslar ishtirokchi ovqat yoki ichimlik olayotgan vaqtda u bilan birga yurish, yugurish yoki harakatlanish huquqiga ega emas.

17. DISKVALIFIKATSIYA

17.1. Tashkilot qo‘mitasi quyidagi hollarda ishtirokchini musobaqadan diskvalifikatsiya qilish huquqiga ega:

ishtirokchi rasmiy startdan oldin yugurishni boshlagan bo‘lsa;

ishtirokchi start raqamisiz startga chiqqan bo‘lsa;

ishtirokchi start zonasi yopilgandan keyin yugurishni boshlagan bo‘lsa;

ishtirokchi ruxsat etilgan rasmiy oziqlanish punktidan tashqarida suv yoki ovqat olgan bo‘lsa. Bunday holatlardan faqat sog‘lig‘i bo‘yicha sudyalar tomonidan yoki ularning rahbarligida ta’minlangan hollargina mustasno;

ishtirokchi Tashkilotchi, hakamlar yoki ko‘ngillilarga nisbatan odobsiz, qo‘pol yoki haqoratli so‘zlarni ishlatgan bo‘lsa;

ishtirokchi Tashkilot qo‘mitasi, hakamlar yoki bosh shifokorning ko‘rsatma va ogohlantirishlariga e’tibor bermagan bo‘lsa;

ishtirokchi Musobaqa qoidalarini buzgan bo‘lsa.

17.2. Quyidagi hollarda ishtirokchi yakuniy natijalar protokolidan chiqarib tashlanadi:

ishtirokchi start zonasidan emas, boshqa joydan yugurishni boshlagan bo‘lsa;

ishtirokchi o‘ziga ajratilgan klasterdan emas, boshqa klasterdan start olgan bo‘lsa;

ishtirokchi ushbu musobaqaning rasmiy raqamisiz yoki raqami kiyim ostida yashiringan holatda yugurgan bo‘lsa;

ishtirokchi boshqa shaxs nomiga ro‘yxatdan o‘tgan raqam bilan yugurgan bo‘lsa;

ishtirokchi masofani qisqartirgan bo‘lsa;

ishtirokchi o‘zi ro‘yxatdan o‘tmagan masofani yugurgan bo‘lsa;

ishtirokchi harakatlanish uchun mexanik vositadan (velosiped, samokat va boshqalar) foydalangan bo‘lsa;

ishtirokchi ushbu Nizom qoidalarini buzgan bo‘lsa.

17.3. Tadbir ishtirokchilariga quyidagilar taqiqlanadi:

ruxsatsiz siyosiy, ijtimoiy va boshqa mitinglar o‘tkazish;

provokatsion chaqiriqlar, siyosiy targ‘ibot, norozilik aksiyalari, namoyishlar o‘tkazish;

siyosiy yoki ijtimoiy yo‘nalishga oid har qanday atributlar, logotiplardan foydalanish.

18. MUSOBAQA HAKAMLAR HAY’ATI

18.1. Hakamlar hay’ati musobaqa qoidalariga qat’iy rioya qilinishini, ishtirokchilar o‘rtasidagi sport kurashi adolatli va halol o‘tishini, g‘olibning obyektiv aniqlanishini ta’minlaydi.

18.2. Musobaqa hakamlar hay’atiga quyidagilar kiradi:

−bosh hakam;

−texnik menejer;

−vaqt hisoblash tizimi katta hakami;

−start-finish zonasi hakamlari;

−masofa bo‘yicha hakamlar;

−ishtirokchilarni aniqlash va taqdirlash xizmati hakamlari.

19. FORS-MAJOR HOLATLARI

19.1. Tadbir quyidagi favqulodda, kutilmagan va oldini olish yoki bartaraf etish imkoni bo‘lmagan holatlar yuzaga kelgan taqdirda, bekor qilinishi yoki unga o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin. Bunday holatlarni oqilona bashorat qilish, oldini olish yoki yengib o‘tish imkonsiz bo‘lib, ular Tashkilotchi nazoratidan tashqarida bo‘ladi.

Xususan, quyidagi holatlar fors-major hisoblanadi:

− tabiiy ofatlar (zilzila, suv toshqini, bo‘ron);

− shamol tezligi soniyasiga 15 metrdan yuqori (shu jumladan);

− havo harorati Selsiy bo‘yicha -25°C dan past yoki +30°C dan yuqori (shu jumladan);

− 12 soat yoki undan kam vaqt ichida yog‘ingarchilik miqdori 20 mm va undan ko‘p bo‘lsa;

− changli bo‘ron;

− O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan favqulodda deb topilgan hodisalar va ularning ehtimoli to‘g‘risidagi ogohlantirishlar;

− yong‘in;

− ommaviy kasallanishlar (epidemiyalar);

− ish tashlashlar; harbiy harakatlar;

− terrorchilik harakatlari;

− diversiyalar;

− transport cheklovlari;

− davlatlar tomonidan qo‘llanilgan taqiqlovchi chora-tadbirlar;

− savdo operatsiyalariga, jumladan ayrim mamlakatlar bilan savdo qilishga nisbatan xalqaro sanksiyalar qabul qilinishi oqibatida joriy etilgan taqiq;

− davlat hokimiyati va mahalliy boshqaruv organlarining harakatlari, qarorlari yoki harakatsizligi;

− Tashkilotchining irodasiga bog‘liq bo‘lmagan boshqa holatlar.

19.2. Yuqorida ko‘rsatilgan holatlar yuz bersa yoki yuz berish xavfi paydo bo‘lsa, natijada Tadbir bekor qilinishi yoki o‘zgartirilishi lozim bo‘lsa, Tadbirda ishtirok etish uchun ro‘yxatdan o‘tgan ishtirokchilarga bu haqda SMS xabari orqali yoki ro‘yxatdan o‘tishda ko‘rsatilgan elektron pochta manziliga xat yuborish orqali xabar beriladi.

20. PROTEST VA APELLATSIYALAR

20.1. Har bir ishtirokchi e’lon qilingan dastlabki natijalar protokolida ko‘rsatilgan natijaga nisbatan protest yoki apellatsiya berish huquqiga ega.

20.2. Protest va apellatsiyalarni berish qoidalari va muddati:

20.2.1. Protest og‘zaki shaklda Musobaqa bosh hakamiga, Tadbir o‘tkazilayotgan vaqtda, e’lon qilingan dastlabki yakuniy natijalardan darhol keyin beriladi.

20.2.2. Apellatsiya yozma shaklda 2025-yil 18-iyungacha (shu kunni ham qo‘shib) quyidagi elektron manzilga yuboriladi: marathon@acdf.uz

20.2.3. Protest yoki apellatsiyada quyidagilar ko‘rsatilishi shart: ishtirokchining familiyasi va ismi, start raqami, masofa, e’tiroz mazmuni hamda aniqlik kiritishga yordam beradigan materiallar ilova qilinishi kerak.

20.2.4. Protest va apellatsiyalar faqat ishtirokchilarning o‘zlari yoki ularning rasmiy vakillari tomonidan taqdim etiladi.

20.2.5. Apellatsiyani ko‘rib chiqish muddati – 5 (besh) ish kunigacha.

20.2.6. Elite klasteridan start olgan ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan protest va apellatsiyalar yengil atletika bo‘yicha musobaqalarni o‘tkazish qoidalari (World Athletics) – 8 - (146-) qoidaga muvofiq amalga oshiriladi:

− Og‘zaki protest sportchi yoki vakili tomonidan e’tiroz bildirilgan natija e’lon qilingach darhol beriladi;

− Yozma apellatsiya e’tiroz bildirilgan yo‘nalish bo‘yicha rasmiy natija e’lon qilinganidan keyin 30 daqiqadan kechiktirmay topshiriladi.

20.3. Rasmiy natija deb events.samarkandmarathon.uz saytida dastlabki yakuniy protokolning e’lon qilinishi hisoblanadi.

21. YAKUNIY QOIDALAR

21.1. Ushbu Nizom Musobaqada ishtirok etish uchun rasmiy taklif – chaqiruv hisoblanadi.

21.2. Tashkiliy qo‘mita ishtirokchilarga yetkazilgan zararlar, noxush hodisalar, shaxsiy buyumlarning yo‘qolishi yoki mol-mulkning shikastlanishi uchun javobgar emas.

21.3. Tashkiliy qo‘mita ishtirokchilarning sog‘lig‘i, shuningdek, tayyorgarlik yoki Musobaqa vaqtida yuzaga kelgan jarohatlar, kasalliklar yoki boshqa tibbiy muammolar uchun javobgar emas. har bir ishtirokchi o‘z sog‘ligi va jismoniy holatiga to‘liq mas’uldir, va zarurat tug‘ilganda Musobaqada ishtirok etishdan oldin tibbiy ko‘rikdan o‘tishga majburdir.

21.4. Ushbu Nizomda ko‘rsatilmagan holatlar Tashkilotchilar tomonidan amaldagi respublika, hududiy va mahalliy huquqiy-me’yoriy hujjatlar asosida alohida tartibda ko‘rib chiqiladi.

21.5. Tashkilotchilar ushbu Nizomga o‘zgartirishlar kiritish huquqini o‘zida saqlab qoladi.